

Toshkent shahridagi “Botanika bog‘i”dagi yoshlar ommaviy tadbiri

Joriy yilning 8-fevral kuni Toshkent shahridagi “Botanika bog‘i”da yoshlar bilan ommaviy tadbir o‘tkazildi. Ushbu tadbirda Toshkent shahridagi barcha Oliy ta‘lim muassasalari tomonidan o‘z soha va yo‘nalishlariga oid maxorat darslari, chiqishlar, musobaqalar, ko‘rgazmalar namoish etildi.

Tadbirda Toshkentdagi Turin politexnika universiteti talabalari tomonidan robototexnika yo‘nalishidagi ishlanmalari xamda texnik loyixalari namoyish etildi. Shu jumladan, talabalar 3D-printer, Odamsimon robot hamda avtomatik ravishda boshqariladigan uchish apparatlarini namoyish etdilar.

Bundan tashqari, universitetimizga qiziqqan ko‘plab yoshlarga universitetda o‘qish haqida, beriladigan imkoniyatlar va kirish imtihonlari haqida ma‘lumot berildi hamda tarqatma materiallar taqdim etildi.



